TILSHUNOSLIK

UDK 811.133.1’362 DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss5/a46

LINGVOKULTURAL KODLARNING MAZMUNIY TIZIMI

СОДЕРЖАТЕЛЬНАЯ СИСТЕМА ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ КОДОВ

CONTENT SYSTEM OF LINGUISTIC CODES

[1]Ishanjanova Munosibxon Saidahmadovna

[1]Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada lingvokulturalogiyani o‘rganishda madaniy kodlarning ahamiyati, shuningdek, lingvokultural kodlarning mazmuniy tizimi va olimlarning kodlarni ma’no xususiyatiga ko‘ra turli yondashuvlarga asoslangan tasniflari yoritilgan. Bugungi kunda lingvokulturalogiyada kodlarni juda ko‘p turlari mavjudligi aniqlanib, ularning o‘ziga xos lingvokultural xususiyatlari misollar asosida tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье освещается значение культурных кодов в изучении лингвокультурологии, а также содержательная система лингвокультурных кодов и классификация кодов учеными на основе различных подходов по характеру значения. Сегодня в лингвокультурологии установлено, что существует огромное количество видов кодов, и на примерах анализируются их специфические лингвокультурные особенности.

Abstract

This article covers the importance of cultural codes in the study of linguoculturalogy, as well as the content system of linguocultural codes and the classifications of scientists based on different approaches to the nature of the codes by meaning. Today, linguoculturalogy has found that there are a huge number of types of codes, and their specific linguistic features are analyzed on the basis of examples.

Kalit so‘zlar: *kodlar tizimi, tasnif, germenevtik doira, lisoniy chegara, ramziy funksiyalar*

Ключевые слова: *система кодов, классификация, герменевтический круг, языковая граница, символические функции*

Key words: *code system, classification, hermeneutic circle, linguistic boundary, symbolic functions*

KIRISH

Lingvokultural kodlarning tizimli tahlili tarjima asarlarda mazmunni ochib berishda ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarda har bir xalqning o‘z madaniy kodi mavjudligi aniqlandi. Bunda, masalan, o‘zbek yigitlariga *Alpomishdek yigit*, qizlarga *Barchinoydek suluv qiz* kabilar faqat o‘zbeklargagina xos bo‘lgan o‘xshatishlar bo‘lib, bunda asarlar tarjimasida tarjimonga qiyinchiliklar tug‘iladi. O‘zbek maqollarida milliylikni aks ettiruvchi turg‘un birliklarni ifodalanishi, *bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi* kabi milliy kodlar tarjimada belgilab olinishi darkor.

ADABIYOTLAR TAXLILI

Kodlar tasnifi olimlarimiz tomonidan hali oxiriga yetilmagan ochiq holat hisoblanadi. Shunga ko‘ra uning turlari har bir izlanuvchi tomonida turlicha tasniflangan. Biz V.Krasnixning umumlashtirib bergan somatik (tana), makon, zamon, predmet, biomorfik va ma’naviy kodlar tasnifiga tayanamiz [1].


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda lingvokulturalogiyada kodlarning juda ko‘p turlari aniqlangan bo‘lib, bulani fazoviy kod: *yettinchi osmonda bo‘lmoq, yulduzni benarvon urmoq* kabi, anomal: *tog‘ni ursa tolqon qiladi, shamol ko‘tarilsa, tuyani osmonda ko‘r*, ma’naviy kod: *yurtboshi, eshitgan quloq, begona ko‘z*, makon kodi: *sharq, garb, qutb*, zamon kodi: *bayramoldi, namozshom*, fitomorf kod: *bolalar hayot gulshani, bo‘tako‘z guli,* harbiy kod: *qo‘ldan boy bermoq, qurolni tashlamoq, sovuq urush*, tibbiyot kodi: *jangovar operatsiya*, predmet kodi: *otning taqasi, tumor,* tabiiy-landshaft kodi: *yerning o‘qi, o‘rmon malikasi, oila daraxti*, memoriy kod: *uyning peshtoqi, ostonadan boshlamoq*, hid kodi: *qon hidi, urush hidi*, oziq-ovqat kodi: *beli og‘rimaganni non yeyishini ko‘r,* kiyim kodi: *doppi tor kelmoq, to‘nini teskari kiymoq,* geometrik kod: *ko‘zlari yumaloq bo‘lib ketdi* kabilar tashkil etadi. Shuningdek, tillarda zoologik kod keng tarqalgan bo‘lib, bunda ko‘proq insonlarning xarakterlari tasvirlanadi. Masalan, ayyor odamga *ilonni yog‘ini yalagan, tulkiday ayyor* kabilar qo‘llaniladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra biz lingvokultural kodlarning quyidagi turlari mavjud ekanligini

aniqladik.



1-ilova. *Lingvokultural kod turlari*

1. Somatik kodlar. Bunda tananing turli qismlarining ramziy funksiyalari somatik kod sifatida talqin qilinadi: *bosh, qo‘l, yelka, yurak, ko‘z, og‘iz* kabilar.

Somatik kodlarning ushbu tasniflarda birinchi berilishining sababi ularning qadimiyligidadir. Ya’ni inson dunyoni bilim bilan tushuna boshlaganda, avvalo, o‘zidan boshlaydi. Natijada, bu germenevtik doirani tugatganidan so‘ng, inson o‘zini boshqa sohalarda ham bilish zarurligini sezdi. Shunday qilib, dunyo taraqqiyotida inson o‘zidan o‘ziga yo‘l ochdi. Boshqacha qilib aytganda, o‘z-o‘zini anglash orqali inson o‘z bilimlarini ekstrapolyatsiya, ya’ni somatik madaniy kodlar bilan dunyoni tasvirlashni boshladi. Somatik madaniy kodlar orqali inson atrofdagi dunyoni o‘zida qo‘llash, misollar keltirish va bilimlarni o‘ziga yuklash kabi tavsifini keltirdi. Madaniyat kodlari o‘rtasida qattiq chegaralar yo‘q va bo‘lishi mumkin emas. Filogeniya va atrofdagi dunyoni inson tomonidan bilish jarayoni nuqtai nazaridan, somatik kod asosan makon bilan bog‘liq bo‘lib, makon esa zamon bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi.

2.Makon kodi predmet o‘rnini bildirishi bilan bog‘liq kodlar. Makon kodining o‘zini somatik koddan ajratish qiyin holat bo‘lib, ko‘p antropomorfik metaforalar tuzilishi jihatdan dastlab somatik koddan tarkib topadi, lekin makon kodiga xizmat qiladi. Asarda somatik kod makon madaniy kodda qanday qo‘llanganligin va inson makon tasvirlarining berilishi o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bunga quyidagi misollarni keltirish mumkin: *qo‘l ostida* - yaqin joyga ishora, *qo‘ldan berdi* - makonni boshlang‘ich nuqtasidan boshlanadi. Makon kodlari o‘z navbatida, yana quyidagilarga bo‘linadi:

a)ichki dunyoni aks ettiruvchi kodlar. Ular tana ichida joylashgan bo‘lib, fikrlar, his-tuyg‘ular, hissiyotlar va boshqalarni o‘zlarida aks ettiradi. Bu yerda inson tanasining turli organlari va qismlari alohida rol o‘ynaydi, ularga eng muhimi *yurak, ruh hissiyotlar yurakka kirdi, qalbda achinish qo‘zg‘aldi, qalbning tubida tosh* kabilar misol bo‘ladi.

b)shaxsiy makon kodi. Bu kodlar insonning tana a'zolari bilan belgilanib, shaxsiy maydon chegarasini hosil qiladi. Masalan: *qo'ldan qo'lga*. Bunda ko'rinib turgan, aniq, ma'lum makon haqida so'z boradi.

3.Madaniyatning zamon kodi vaqt o'qida insonning harakatini aks ettiradi, shuningdek, insonning zamonga munosabatini namoyon qiladi. Zamonaviy o'zbek tilida vaqt o'qiga nisbatan insonlarning munosabati verbal va jest vositalari bilan ifodalanadi. Bunda noverbal holda "yuz qismi oldinga qaragan tarzda", "zamonni ifodalovchi ortda qoldi", "zamonlar osha", "o'tgan yili" kabi iboralar bilan ifodalanadi. Jest bilan orqaga imo qilish ham *ortda qoldi* ma'nosini beradi. Zamonni bildiruvchi til birliklari kodlarni tashkil etadi. Bunda *sarflamoq, o'tkazmoq, yo'qotmoq, yutqazmoq, ishlamoq, topmoq, sozlamoq* kabi fellar ham qo'llaniladi. Bundan tashqari "vaqti-vaqti bilan", "hozircha", "oldin", "keyin" kabi ravishlar zamonni ifodalasa, asarda madaniy kod sifatida *shom vaqti, azon vaqti, kunchiqarda* kabilar namoyon bo'ladi.

4.Predmet ifodalovchi madaniy kodlar. Bular: *uy, jins, oila* kabi tushunchalarni o'z ichiga olib, bunda predmet mavzuviy kodlar bevosita ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, bu bog'liqlik ikki tomonlama tobe hisoblanadi. Predmet kodi ijtimoiy munosabatlarga kirib boradi, asosan, ularni bir tomondan oldindan belgilab beradi va boshqa tomondan ularni aks ettiradi, shuningdek, predmet kodga ijtimoiy munosabatlarning ko'plab asosiy tushunchalari kiradi. Shunday qilib, somatik kod inson bilish jarayonining boshlang'ich nuqtasi bo'lganligi hamda ma'naviy kod bilan bog'liq bo'lib, ma'lum darajada unga nisbatan birlamchi bo'lgani kabi jihatlar aniqlandi.

V.Krasnix predmet kodining ma'naviy kod bilan chambarchas bog'liqligi va ijtimoiy munosabatlar orqali aniqlanishini aytadi. Olim o'z fikrini B.V.Kolesovning tadqiqotlariga tayangan holda, "uy" tushunchasi misolida ochib beradi[1].

Kolesov "uy" ajdodlar hayotida yashaydigan joy deb tushunadi. Keyinchalik "uy" iqtisodiy ahamiyat kasb etib mulk, boylik manosiga ham ega bo'ldi. "Uy" yashadigan joy yoki boylik mazmunini kasb etsa ham uning negizida bino predmet tushunchasi mavjud. Uy bu boshpana odamlarni birlashtiradigan makondir. Bundan tashqari, uy tushunchasi fundamental ahamiyatga ega bo'lib, o'z va o'zga qarama-qarshiligini namoyon etadi. Ya'ni uy-bu o'ziniki bo'lgan joy. Uy bilan bog'liq qadriyatlar har bir xalqda uchraydi. Masalan, uy ostonasida turib salom berib bo'lmaydi. "Nima uchun?" degan savol qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, balki, uy chegarasi "o'z" va "o'z"ga munosabatiga borib qadaladi. Bu shu oila chegarasi va bu chegara o'zga tomonidan buzilishi mumkin emas. Odatda, uyning eshigiga tumor, taqa kabi belgilarning qadab qo'yilishi uyning himoyasi, sehr-jodulardan himoyasi sanaladi. Bu holat predmet kodining diniy kod bilan bog'liqligini namoyon etadi.

5. Biomorfik kodlar ikkiga bo'linadi: a) zoomorf va b) fitomorf kodlar.

Zoomorfik kodlar ham tilda faol sanalib, ko'proq paremiyalar tarkibida uchraydi. Masalan, frazeologik birlik sifatida "*otni qamchiladi*" - ishlarni jadallashtirdi ma'nosi yotadi. Shuningdek, zoomorfik madaniyat kodlari R. Bart tomonidan tadqiq etilib, olim ularni jamoaning madaniy tajribasi, madaniyat xotirasining parchalari, madaniy tendensiyalar yoki motivlar, olingan madaniy pretsedentlar, paradigmatik va ikonik xarakterlar deb biladi [2.284].

Fitomorfik kod. Daraxt, o'simlik va ularning qismlari nomini anglatgan til birliklari bunga misol bo'ladi [3]. Xalqlar o'zlariga ayrim daraxt, o'simliklarni madaniy belgi tarzida ramz qilib oladilar. Masalan; *olma daraxti* Fransiyaning Provinsiya viloyati ramzi hisoblanadi. O'zbek tilida terak, tol kabi daraxt turlari kodlashib hozirda toponimlashgan holatlar kuzatiladi. Masalan: *Qatorterak, Qatortol* kabi.

6. Ma'naviy kod yuqorida sanab o'tilgan barcha kodlar asosida mavjud bo'lib, u axloqiy qadriyatlardan iboratdir. Bu kod o'zida har bir xalqning o'ziga xos qadriyatlarini namoyon etadi. *O'zbeklarda bag'rikenglik, oqibat, Yevropada samimiylik, muloyimlik* kabi, shuningdek, bu kod aksiologik xususiyatlarni ham ifodalaydi. Masalan: *yaxshilik va yomonlik, adolat va jaholat*.

Kodlarni lingvistik tomondan o'rganishga qiziqish ularning ko'p qirraliligi bilan izohlanadi. Semiotika sohasidafi olimlar til va kodlarni genetik qondoshligi, paydo bo'lish tarixiga ahamiyat bergan holda tadqiq etadilar.

R.O.Solganikning til va kodni genetik jihatdan musiqaga bog'lab o'rganishi musiqiy kodni namoyon bo'lishi va ushbu fanlarni o'zaro bog'lab o'rganish ushbu sohalar doirasida ko'proq

yutuqlarga erishishda ahamiyatli ekanligi kuzatiladi. Olim musiqani tanamiz ongsiz ravishda uning tuzilishi haqida ma'lumotga ega, lekin uning unversalligi kodlar bilan aks etib til va dunyoni bog'laydi deb ta'kidlaydi.

Bugungi kunda biz bir nechta til tavsiflashni darajasiga ko'ra, obyekt yoki voqea-hodisalarni leksik-semantik maydonlar, tushunchalar tizimi, madaniy qadriyatlar, madaniy kodlar orqali nomlashimiz mumkin.

Biz madaniyatni madaniy kodlar maydoni sifatida tasavvur etar ekanmiz, kognitologlarning fikriga ko'ra, insonlar aloqalarni koordinat chizig'i bo'ylab emas, obyekt makon oralig'idagi munosabatlar orqali amalga oshirilishini kuzatamiz [4.34-41]. Olim madaniy kodni "konteyner" konseptual metaforasi orqali aniqlashni maqul ko'radi. Bunda kod chuqur madaniy makon bo'lib, "konteyner" kodni turli xil madaniy til mohiyati ma'nolari bilan to'ldiradi va shakllantiradi.

Majoziy konteyner sxemasi birinchi marta M.Jonson tomonidan taklif qilingan [5.387]. Ushbu metafora umumiy ilmiy xususiyatga ega bo'lib, uning yordami bilan nafaqat insonni tirik organizm sifatida, balki butun dunyo mavjudotlari, biologiya, fizika va boshqa bir qator fanlarda namoyon bo'lishi kuzatiladi. Konteyner metaforasi yordamida mavhum tushunchalarning har qanday guruhlar, sinflar va toifalarini tavsiflash mumkin. Kognitiv yo'nalish vakillari E.S. Kubryakova, E.E. Golubkova, E.V. Raxilina va boshqalar konteyner sxemasini o'rganishga katta hissa qo'shdilar, "Konteyner g'oyasining o'zi-bu olamning lisoniy sxematik va soddalashtirilgan ko'rinishi bo'lib, inson tomonidan – ham moddiy, ham mavhum bo'lgan obyektlarni tavsiflashdir" [6.482]. Bunday tavsiflash metaforalarning barcha turlarida uchraydi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, kodlar tilshunoslikda ham muhim ahamiyat kasb etadi va madaniyatning belgisi hisoblanadi. Bunda tarjimonning madaniyat va til bilimlariga teng ega bo'lishi talab etiladi. Kodlarni yaxshi tushunish tarjimon uchun asliyatni tarjimadagi aksini yoritishda qulaylik yaratadi. Shuningdek, kodlarning mazmuniy tizimini takomillashtirish tilshunoslikda yangi tadqiqotlar olib borishni taqazo etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология / - М.: Гнозис, 2002. - 284 с.
2. Барт Р. Избранные труды. Семиотика. Поэтика. – М.: Прогресс, 1994. – 616 с.
3. Кольовска Е.Г. Природно-ландшафтный код русской культуры в аспекте лингводидактики. Дисс. … к. пед. н. – Москва, 2014. – 240 с.
4. Кравченко А.В. Язык и восприятие. Когнитивные аспекты языковой категоризации. – Иркутск, 1996. – С. 34–41.
5. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем / Дж. Лакофф, М. Джонсон; пер. Н.В. Перцова // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С. 387–415.
6. Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира / Рос. академия наук. Ин-т языкознания. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с. – (Язык. Семиотика. Культура). [5. 482-sahifa].